Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini.....	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari.....	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari.....	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish.....	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili.....	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	



KORXONALARDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna

i.f.f.d., dotsent

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

tuygunoy_mamadjanova@tues.uz

<https://orcid.org/0009-0009-2305-6123>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati korxonalarini misolida raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil etiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy korxonalar uchun marketing faoliyatini raqamlashtirish – yangi bozor segmentlarini egallash, iste'molchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va mahsulotlar differensiasiyasini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Surxondaryo viloyatida elektron tijorat, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali sotuvlarni kengaytirish jarayonlari hududning iqtisodiy dinamikasini mustahkamlashda ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlarning so'nggi hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining raqamli transformatsiya bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari hamda viloyat darajasidagi statistik ko'rsatkichlar asosida tahlillar olib borildi. Natijalarga ko'ra, raqamli marketing strategiyalarining shakllanishida big data, sun'iy intellekt va kontent marketing vositalaridan samarali foydalanish korxonalar samaradorligini oshirish, hududiy raqobat muhitini rivojlantirish va yangi innovatsion biznes modellarini joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Shuningdek, maqolada Surxondaryo viloyati korxonalarini uchun raqamli marketingni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy tavsiyalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlashda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik, kichik biznes, bozor ulushi, Porter nazariyasi, marketing miksi, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, brend boshqaruvi, innovatsion marketing.

Abstract: This article analyzes the formation of digital marketing strategies and their impact on market competitiveness using the example of enterprises in the Surkhandarya region. In the context of the digital economy, digitalization of marketing activities for regional enterprises is becoming an important factor in capturing new market segments, strengthening interactive communication with consumers, and ensuring product differentiation. In the Surkhandarya region, the processes of expanding sales through e-commerce, social networks, and mobile applications are gaining importance in strengthening the economic dynamics of the region. During the study, analyses were conducted based on the latest reports of international organizations, resolutions and decrees of the Republic of Uzbekistan on digital transformation, and statistical indicators at the regional level. According to the results, it was found that the effective use of big data, artificial intelligence, and content marketing tools in the formation of digital marketing strategies is of decisive importance in increasing the efficiency of enterprises, developing a regional competitive environment, and introducing new innovative business models. The article also developed priority areas and practical recommendations for the implementation of digital marketing for enterprises in the Surkhandarya region. The results of the study can be used to accelerate regional economic development and strengthen market competitiveness.

Key words: digital marketing, marketing strategy, competitiveness, small business, market share, Porter's theory, marketing mix, digital transformation, e-commerce, brand management, innovative marketing.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование стратегий цифрового маркетинга и их влияние на рыночную конкурентоспособность на примере предприятий Сурхандарьинской области. В условиях цифровой экономики цифровизация маркетинговой деятельности для региональных предприятий становится важным фактором захвата новых сегментов рынка, усиления интерактивной коммуникации с потребителями и обеспечения дифференциации продукта. В Сурхандарьинской области процессы расширения продаж через электронную коммерцию, социальные сети и мобильные приложения приобретают все большее значение в усилении экономической динамики региона. В ходе исследования проводился анализ на основе последних отчетов



международных организаций, постановлений и указов Республики Узбекистан по цифровой трансформации, а также статистических показателей на региональном уровне. По результатам установлено, что эффективное использование инструментов больших данных, искусственного интеллекта и контент-маркетинга при формировании стратегий цифрового маркетинга имеет решающее значение в повышении эффективности деятельности предприятий, развитии региональной конкурентной среды и внедрении новых инновационных бизнес-моделей. В статье также разработаны приоритетные направления и практические рекомендации по внедрению цифрового маркетинга для предприятий Сурхандарьинской области. Результаты исследования могут быть использованы для ускорения регионального экономического развития и повышения рыночной конкурентоспособности.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, маркетинговая стратегия, конкурентоспособность, малый бизнес, доля рынка, теория Портера, маркетинговый комплекс, цифровая трансформация, электронная коммерция, управление брендом, инновационный маркетинг.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari marketing strategiyalarining mazmuni va shakllanish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) ning 2023-yilgi Global Raqobatbardoshlik hisobotida ta'kidlanganidek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sishi, mehnat unumdorligi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi yuqori darajada ta'minlanmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, raqamli marketing korxonalarining nafaqat yangi iste'molchilarni jalb qilish, balki mavjud mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlash orqali ularning bozordagi mavqeini barqarorlashtirish imkonini beruvchi asosiy instrument sifatida shakllanmoqda. Bunday jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy bo'g'inlari uchun dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, internetdan foydalanish ko'rsatkichlari hamda mobil qurilmalar orqali amalga oshirilayotgan onlayn xaridlarning hajmi sezilarli darajada kengaymoqda, bu esa elektron tijorat infratuzilmasini marketingning raqamli kanallar bilan uyg'unlashtirishni strategik zarurat sifatida yuzaga keltirmoqda [2]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot konferensiyasining (UNCTAD) 2024-yilgi E-commerce and Development Reportida esa global elektron tijorat hajmi jahon savdosining 20 foizidan ortiq qismini tashkil etayotgani, bu esa kichik va o'rta biznes uchun xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirayotgani ta'kidlangan [3].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar qabul qilinishi, xususan, Prezidentning "2023–2030-yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi mamlakat korxonalarida zamonaviy marketing texnologiyalarini joriy etish hamda ularning samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda [4]. Shu bilan birga, 2022–2024-yillarda elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi hududiy korxonalarini global onlayn savdo maydonlariga keng jalb qilishni ko'zda tutib, marketing boshqaruvining yangi paradigmalarini shakllantirishga asos yaratmoqda [5].

Surxondaryo viloyati misolida ushbu jarayon yanada ahamiyatli bo'lib, viloyat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ri keladi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda viloyatdagi kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 65 foizni tashkil qilgan, biroq ularning asosiy qismi ichki bozor bilan cheklanib qolgan [6]. Bu esa raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va samarali joriy etish orqali ichki bozor ulushini kengaytirish, yangi raqobat ustunliklarini shakllantirish hamda eksport salohiyatini oshirishni talab qilmoqda.

Porterning raqobat ustunligi nazariyasi asosida qaralganda, korxonalarining bozordagi muvaffaqiyati innovatsion yondashuvlarni qo'llash, marketing miqsini optimallashtirish va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga bog'liqdir [7]. Shu boisdan, Surxondaryo viloyati korxonalarini uchun raqamli marketing strategiyalarini shakllantirish nafaqat raqobatbardoshlikni mustahkamlash, balki hududiy iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlash va xalqaro bozorga chiqishda ustuvor omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi o'n yillikda raqamli marketing strategiyalari bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada kengayib, ularning korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashdagi mexanizmlari chuqur ilmiy asosda o'rganilmoqda. Kotler va Keller (2016) marketing boshqaruvining zamonaviy paradigmasini tahlil etar ekan, raqamli marketingni korxonalar strategiyasining ajralmas komponenti sifatida baholaydi hamda uning iste'molchilar xatti-harakatiga ko'rsatadigan bevosita ta'sirini empirik dalillar asosida asoslab beradi [8]. Ushbu yondashuv



raqamli marketingni faqat kommunikatsion vosita emas, balki korxonaning umumiy strategik rivojlanish modeli sifatida ko'rishga imkon yaratadi.

Chaffey va Ellis-Chadwick (2019) raqamli marketing strategiyalarini shakllantirishda SEO, kontent marketing va ijtimoiy tarmoqlarni samarali integratsiya qilish zarurligini qayd etadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ushbu vositalarning uyg'unligi korxonalarining bozor ulushini sezilarli darajada oshirish va iste'molchilar bilan o'zaro aloqani chuqurlashtirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi [9]. Strauss va Frost (2016) esa raqamli marketingning kichik biznes subyektlari uchun ustuvor afzalliklarini ko'rsatib, uning operatsion xarajatlarni kamaytirish, bozorga kirish to'siqlarini yengillashtirish va tezkor iste'molchi aloqalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [10].

Wymbs (2011) raqamli transformatsiyaning biznes va ta'limdagi roli orqali marketing strategiyalarining yangi innovatsion modelga o'tish zaruratini asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, raqamli marketingni o'zlashtirmagan korxonalar uzoq muddatli istiqbolda raqobat ustunligini yo'qotish xavfiga duch keladi [11]. Ryan (2016) tadqiqotida esa raqamli marketing nazariyalarining amaliy qo'llanilishi, ayniqsa kichik va o'rta biznes sharoitida, innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilganda samarali natijalar berishini ilmiy asoslab beradi [12].

Tiago va Verissimo (2014) an'anaviy va raqamli marketing strategiyalarini solishtirib, raqamli marketingning ustun jihatlari – interaktivlik, shaffoflik va iste'molchi bilan ikki tomonlama aloqani samarali yo'lga qo'yish imkoniyatlarini empirik misollar bilan ochib bergan [13]. Bu esa korxonalar uchun raqamli marketingni qo'llash nafaqat zamonaviy tendensiya, balki bozor sharoitida strategik zarurat ekanini tasdiqlaydi. Kingsnorth (2019) o'z tadqiqotida raqamli marketing strategiyalarining brend boshqaruvi, mijozlarni jalb qilish va raqobat ustunligini mustahkamlashdagi mexanizmlarini chuqur o'rgangan hamda ularni amaliy model sifatida taklif qilgan [14].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing faqatgina savdo hajmini kengaytiruvchi vosita bo'lib qolmay, balki korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini shakllantiruvchi kompleks strategik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Surxondaryo viloyati misolida ushbu konsepsiyalar hududiy korxonalarining ichki va tashqi bozorda barqaror o'sishini ta'minlash, eksport salohiyatini kuchaytirish hamda innovatsion biznes modellarini shakllantirishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri ilmiy tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida mintaqaviy iqtisodiy tahlil, komparativ usul, empirik kuzatuv va kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. Surxondaryo viloyati korxonalari bo'yicha Davlat statistika boshqarmasi, xalqaro tashkilotlarning (WEF, ITU, UNCTAD) so'nggi yillarda e'lon qilingan hisobotlari hamda ilg'or ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida OLS regressiya tahlili, marketing samaradorligi ko'rsatkichlari (bozor ulushi, mijozlarni jalb qilish darajasi, raqobat ustunliklari) o'rganildi.

Metodologiyaning ilmiy asosi Porterning raqobat ustunligi nazariyasi va marketing miksida kelib chiqib, raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirildi. Shuningdek, tadqiqotda raqamli marketing strategiyalarining hududiy korxonalariga ta'sirini baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqildi: (1) ichki bozor ulushining o'sishi, (2) raqobatbardoshlik indeksidagi o'zgarishlar, (3) iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi. Natijalarni robustlik nuqtai nazaridan tekshirish maqsadida alternativ spetsifikatsiyalar va komparativ hududiy taqqoslashlar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda Surxondaryo viloyati va uning tumanlari misolida 2015–2024-yillar oralig'ida raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri Porter modeli asosida hamda quyidagi indikatorlar bo'yicha tahlil qilinadi: (1) ichki bozor ulushining o'sishi, (2) raqobatbardoshlik indeksidagi o'zgarishlar, (3) iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududiy korxonalar faoliyatida raqamli transformatsiyaning samaradorligini aniqlash, barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish va xalqaro bozordagi imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida ichki bozorning shakllanishi va rivojlanish dinamikasini aniqlash hududiy korxonalar faoliyatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining YIMdagi ulushi ortib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki bozordagi mavqei mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, raqamli marketing vositalarining joriy etilishi natijasida elektron tijorat hajmi hamda onlayn savdo imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Bu jarayon hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kuchaytirib, ichki bozor raqobat muhitini sifat jihatdan o'zgartirmoqda (1-jadval).


 1-jadval. Surxondaryo viloyatida ichki bozor ulushining o'sishi¹

Yillar	Viloyat YAIMdagi kichik biznes ulushi (%)	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki bozor ulushi (%)	Onlayn savdo hajmi (mlrd.so'm)	O'sish sur'ati (%)
2015	58,1	42,5	95	–
2017	60,3	44,7	145	9,8
2019	62,4	47,9	210	12,3
2021	64,8	51,6	345	14,6
2023	65,0	54,2	560	16,1
2024	66,2	55,7	670	15,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2024-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida kichik biznesning YIMdagi ulushi 58,1 foizdan 66,2 foizgacha o'sdi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki bozor ulushi ham 42,5 foizdan 55,7 foizga ko'tarildi. Bu ko'rsatkichlar hududiy korxonalar ichki bozorda raqamli marketing strategiyalaridan faol foydalanib, iste'molchilarga yanada tezkor va qulay xizmat ko'rsatishga intilayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, mahsulot differensiasiyasi va marketing miksi elementlarining joriy etilishi ichki raqobat muhitini kuchaytirib, korxonalarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Onlayn savdo hajmining keskin o'sishi alohida e'tiborga loyiq: 2015-yildagi 95 mlrd.so'mdan 2024-yilda 670 mlrd.so'mga yetib, yiliga o'rtacha 14–15 foizlik barqaror o'sishni ko'rsatdi. Bu jarayon hududiy korxonalarining raqamli platformalar orqali yangi iste'molchilarni jalb qilish, bozor ulushini kengaytirish va iste'molchilar bilan bevosita raqamli muloqot o'rnatish imkoniyatlarini ortganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Porter modeliga ko'ra, ichki bozordagi bunday o'sish raqobat ustunliklarini kuchaytiruvchi omil bo'lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqish salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Surxondaryo viloyatida 2015–2024-yillar davomida raqobatbardoshlik indeksining shakllanishi ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat va infratuzilma darajasidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu ko'rsatkichlar hududiy korxonalar faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot diversifikatsiyasi hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobat ustunligini ta'minlash darajasini ifodalaydi. Shu bois, indeks dinamikasi viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sish salohiyatini va hududiy korxonalarining global raqobat sharoitiga moslashuvchanlik darajasini aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

 2-jadval. Surxondaryo viloyati raqobatbardoshlik indeksi²

Yil	Ishlab chiqarish samaradorligi	Innovatsion faoliyat	Infratuzilma darajasi	Raqobatbardoshlik indeksi (0–100)
2015	42,3	28,4	35,1	35,3
2017	45,9	31,7	39,5	38,7
2019	49,4	36,2	43,7	43,1
2021	52,7	40,6	48,5	47,3
2023	56,2	44,8	52,1	51,0
2024	57,5	46,3	53,8	52,5

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Surxondaryo viloyati raqobatbardoshlik indeksi 2015–2024 yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Umumiy indeks 2015-yildagi 35,3 balldan 2024-yilda 52,5 ballga yetgan. O'sishning asosiy omillari ishlab chiqarish samaradorligining oshishi (42,3 balldan 57,5 ballgacha) va innovatsion faoliyatning faollashuvi (28,4 balldan 46,3 ballgacha) bilan bog'liq. Bu jarayon korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining joriy etilishi, xususan, texnologik yangiliklardan foydalanish va ichki bozorda mahsulot differensiasiyasini kuchaytirish orqali raqobat ustunliklarini shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, infratuzilma ko'rsatkichlarining 35,1 balldan 53,8 ballgacha ko'tarilishi hududda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini tasdiqlaydi. Internet qamrovi kengayishi, elektron to'lov tizimlarining takomillashuvi va logistika infratuzilmasidagi o'zgarishlar korxonalar uchun raqamli transformatsiya imkoniyatlarini oshirdi. Porter modeli nuqtai nazaridan bu holat "yangi kiruvchilar xavfi"ni kuchaytirib, bozorda raqobat intensivligini oshirsa-da, ayni paytda mahalliy korxonalar uchun innovatsion marketing strategiyalari orqali ustunlikka erishish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2 Manba: Jahon iqtisodiy forumi va Surxondaryo viloyati davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



Surxondaryo viloyatida iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi yillar davomida sezilarli o'zgarishlarni namoyon etdi. Ushbu jarayon internet foydalanuvchilari sonining ortishi, korxonalar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish ko'lamining kengayishi, elektron mijozlar bazasining shakllanishi hamda onlayn xizmatlardan foydalanish darajasining oshishi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur ko'rsatkichlar hududiy korxonalar uchun raqamli marketing strategiyalarini samarali joriy etish, iste'molchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va bozorda mijozlar sodiqligini mustahkamlash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. Surxondaryo viloyatida iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi³

Yil	Internet foydalanuvchilari soni (ming)	Korxonalarining ijtimoiy tarmoqlarda faolligi (%)	Elektron mijozlar bazasi (ming)	Onlayn xizmatlardan foydalanuvchi aholining ulushi (%)
2015	485	14,2	98	11,5
2017	596	19,5	125	14,8
2019	702	27,6	167	19,3
2021	845	36,9	240	26,5
2023	962	44,8	315	31,7
2024	1018	49,3	348	34,9

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatida iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Internet foydalanuvchilari soni 2015-yildagi 485 ming kishidan 2024-yilda 1 milliondan oshib, deyarli ikki barobarga ko'paygan. Shu davrda korxonalarining ijtimoiy tarmoqlarda faolligi 14,2 foizdan 49,3 foizgacha ko'tarilgan. Bu ko'rsatkichlar hudud korxonalarining marketing faoliyatida raqamli kanallarga bo'lgan e'tibor kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Elektron mijozlar bazasi ham 98 mingdan 348 minggacha kengayib, iste'molchilar bilan bevosita aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini keskin yaxshilagan.

Bundan tashqari, onlayn xizmatlardan foydalanuvchi aholining ulushi 2015-yildagi 11,5 foizdan 2024-yilda 34,9 foizga yetgani hududda raqamli transformatsiyaning sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Porter modeli nuqtai nazaridan, bunday o'zgarishlar "xaridorlar kuchi" omilining oshishini bildiradi, ya'ni iste'molchilar korxonalardan yuqori sifat, qulaylik va onlayn xizmatlar bo'yicha yanada ko'proq talab qo'yishga o'tmoqda. Natijada, korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun innovatsion marketing yondashuvlarini kengaytirishga majbur bo'lmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasining ortishi Surxondaryo viloyati korxonalari uchun ichki bozorni kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqishda barqaror ustunlik yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar Surxondaryo viloyatida raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning raqobatbardoshlikka ta'sirini 2015–2024-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini berdi. Asosiy natijalar quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchiidan, ichki bozor ulushi ortib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi 2015-yildagi 42,5 foizdan 2024-yilda 55,7 foizga ko'tarildi. Bu, asosan, kichik biznes subyektlari tomonidan elektron tijorat va ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo hajmini kengaytirish, iste'molchilar bilan bevosita muloqot o'rnatish imkoniyatlarining ortishi bilan bog'liq.

Ikkinchiidan, raqobatbardoshlik indeksi 2015-yildagi 35,3 ballidan 2024-yilda 52,5 ballgacha o'sib, viloyat korxonalarida innovatsion faoliyatning faollashganini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmaning takomillashuvi hududiy iqtisodiyotning raqobat muhitini kuchaytirib, korxonalariga raqamli transformatsiyaga asoslangan strategik ustunlik yaratdi.

Uchinchiidan, iste'molchilar bilan raqamli muloqot darajasi 2015–2024 yillar oralig'ida sezilarli o'sib, internet foydalanuvchilari soni ikki barobarga, korxonalarining ijtimoiy tarmoqlarda faolligi esa uch barobarga oshdi. Bu jarayon iste'molchilar kuchining ortishiga, ya'ni xaridorlarning talabchanligi va tanlov imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Natijada, korxonalar sifat, narx va brend strategiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi.

Mazkur tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida raqamli marketing strategiyalarini shakllantirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida bir qator ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Quyida ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

3 Manba: International Telecommunication Union (ITU) hamda Surxondaryo viloyati boshqarma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



Birinchiidan, raqamli infratuzilmani yanada kuchaytirish zarur. Hududda internet qamrovi darajasini oshirish, tezkor mobil aloqa tarmoqlarini kengaytirish va elektron to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish orqali korxonalar uchun onlayn savdo va marketing faoliyatini samarali olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon kichik biznes subyektlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi va ularni ichki hamda tashqi bozorlarda faolroq ishtirok etishga undaydi.

Ikkinchiidan, kichik va o'rta biznes korxonalarini raqamli marketing vositalaridan foydalanishga rag'batlantirish maqsadida maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etilishi lozim. Masalan, SEO, kontent marketing va elektron tijorat platformalarida faoliyat yuritish bo'yicha treninglar tashkil qilish, soliq imtiyozlari taqdim etish va grant dasturlarini kengaytirish hududiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchiidan, Surxondaryo viloyatining eksport salohiyatini kuchaytirish uchun hududiy brend yaratish muhim. Qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarda yagona brend ostida targ'ib qilish, ularni ekologik sertifikatlar bilan mustahkamlash hamda raqamli reklama kampaniyalarini tashkil etish viloyat mahsulotlariga yuqori qo'shilgan qiymat qo'shadi.

To'rtinchiidan, innovatsion marketing yondashuvlarini kengaytirish talab etiladi. Big data, sun'iy intellekt va onlayn analitika asosida iste'molchilar xatti-harakatlarini chuqur o'rganish orqali korxonalar aniq bozor segmentatsiyasini amalga oshirishi mumkin. Bu esa nafaqat iste'molchilarning ehtiyojlariga tezkor javob berish, balki uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Economic Forum. (2023). The Global Competitiveness Report 2023. Geneva: World Economic Forum.
2. International Telecommunication Union. (2024). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. Geneva: International Telecommunication Union.
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). E-commerce and Development Report 2024. New York: United Nations.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2020-yil 5-oktabr). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4892-son. Toshkent: Prezident qarorlari to'plami.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. (2022-yil 12-may). 2022–2024-yillarda elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi. Toshkent: Vazirlar Mahkamasi hujjatlari to'plami.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Davlat statistika qo'mitasi nashri.
7. Porter, M. E. (1998). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press.
8. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education Limited.
9. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice (7th ed.). Pearson Education.
10. Strauss, J., & Frost, R. (2016). E-marketing (7th ed.). Pearson.
11. Wymbs, C. (2011). Digital marketing: The time for a new "academic major" has arrived. Journal of Marketing Education, 33(1), 93–106. SAGE Publications.
12. Ryan, D. (2016). Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation (4th ed.). Kogan Page.
13. Tiago, M. T. P. M. B., & Verissimo, J. M. C. (2014). Digital marketing and social media: Why bother? Business Horizons, 57(6), 703–708. Elsevier.
14. Kingsnorth, S. (2019). Digital Marketing Strategy: An Integrated Approach to Online Marketing. Kogan Page.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>